

SUN'iy INTELLEKT SUD QARORLARINI QABUL QILISH JARAYONIDA: IMKONIYATLAR VA XAVF-XATARLAR.

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakultetining 2-kurs talabasi

Qurbanov Siyovush Jamaliddinzoda

Tel: +998941000241

e-mail: qurbanovsiyovush1009@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada hozirgi kunda sun'iy intellekt texnologiyalarining huquqiy sohada qo'llanilishining jadal rivojlantirish choralari olib borilmoqda. Ushbu maqolada sun'iy intellektning sud qarorlarini qabul qilish jarayonidagi imkoniyatlari va xavf-xatarlari tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt sud tizimiga kiritilgan huquqbazarliklarga qaror qabul qilishni tezlashtirish, inson omildan kelib chiqadigan xatolarni kamaytirish hamda sud ishlarining samaradorligini oshirish va vaqt tejamkorligini oshirishga imkon beradi. Shu bilan birga, ushbu texnologiyadan foydalanish huquqiy adolat, shaffoflik va inson huquqlari nuqtayi nazaridan bir qator xavf-xatarlarga ega. Asosiy muammolar qatorida sun'iy intellektning faoliyat yuritishi uchun kiritilgan ma'lumotlarning noto'g'ri talqini, shuningdek yuridik soha xodimlari uchun ishsizlikning ortishi va huquqiy javobgarlik masalalari hamda sudyaning insoniy omillar bilan bog'liq jihatlar ko'rib chiqilishi qiyin kechadi. Tadqiqot natijalari sun'iy intellektni sud qarorlarini qabul qilish jarayonida vaqt bilan bog'liq muammolarni kamaytirishi mumkin, biroq adolatli qaror qabul qilishda insoniy jihatlarni shuningdek ayrim prinsiplarni normalarga muvofiqlab qaror qabul qilishi jadal muammoga aylanishi mumkinligini ma'lum qilishimiz mumkin.

Kalit so'zlar : Sun'iy intellektdan foydalanishning imkoniyatlari, Sun'iy intellektning sud tizimiga ta'siri, Sun'iy intellektdan foydalanishning xavf-xatarlari .

Artificial Intelligence in Judicial Decision Making: Opportunities and Threats.

Tashkent State Law University

2nd year student of the Faculty of Public Law

Kurbanov Siyovush Jamaliddinzada

Tel: +998941000241

e-mail: qurbanovsiyovush1009@gmail.com

Abstract. In this article, measures for the rapid development of the use of artificial intelligence technologies in the legal field are currently being carried out. This article analyzes the opportunities and risks of artificial intelligence in the process of making court decisions. Artificial intelligence allows to speed up decision-making on offenses introduced into the judicial system, reduce errors caused by the human factor, and increase the efficiency of court cases and save time. At the same time, the use of this technology has a number of risks in terms of legal justice, transparency and human rights. Among the main problems are the incorrect interpretation of the data entered for the operation of artificial intelligence, as well as the increase in unemployment for the employees of the legal sector and the issues of legal responsibility, as well as the aspects related to the human factors of the judge are difficult to consider. The results of the research can reduce the problems related to time in the process of making court decisions, but we can inform that it can become an urgent problem to make decisions in accordance with human aspects and certain principles in making fair decisions.

Key words: Opportunities of using artificial intelligence, Impact of artificial intelligence on the judicial system, Dangers of using artificial intelligence.

**Искусственный интеллект в принятии судебных решений:
возможности и угрозы.**

Ташкентский государственный юридический университет

Студентка 2 курса факультета публичного права

Курбанов Сиёвуш Джамалиддинзада

Тел: +998941000241

электронная почта: qurbanovsiyovush1009@gmail.com

Абстрактный. В данной статье в настоящее время осуществляются меры по ускоренному развитию использования технологий искусственного интеллекта в правовом поле. В данной статье анализируются возможности и риски использования искусственного интеллекта в процессе принятия судебных решений. Искусственный интеллект позволяет ускорить принятие решений по внесенным в судебную систему правонарушениям, снизить количество ошибок, вызванных человеческим фактором, повысить эффективность рассмотрения судебных дел и сэкономить время. В то же время использование этой технологии несет в себе ряд рисков с точки зрения юридической справедливости, прозрачности и прав человека. Среди основных проблем – неправильная интерпретация данных, вводимых для работы искусственного интеллекта, а также рост безработицы среди работников юридического сектора и трудноучитываемые вопросы юридической ответственности, а также аспекты, связанные с человеческим фактором судьи. Результаты исследования могут уменьшить проблемы, связанные со временем в процессе принятия судебных решений, но мы можем сообщить, что актуальной проблемой может стать принятие решений в соответствии с человеческими аспектами и определенными принципами принятия справедливых решений.

Kirish:



Zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi turli sohalarga, jumladan, sud-huquq tizimiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalari huquqiy jarayonlarni avtomatlashtirish, hujjatlarni tahlil qilish va hatto sud qarorlarini qabul qilishda yordam berish imkoniyatiga ega. Ayrim davlatlarda sun'iy intellekt allaqachon sud tizimida qo'llanilib, sudyalar va advokatlarga yordamchi vosita sifatida foydalanilmoqda.

Biroq, sun'iy intellektning sud qarorlarini qabul qilish jarayonida to'liq ishtirok etishi turli savollar va bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Texnologiyaning aniqligi, xolisligi va odil sudlov tamoyillariga mosligi masalalari yuzasidan turli fikrlar mavjud. Sun'iy intellekt inson xatosini kamaytirish va sud ishlarini tezlashtirish imkonini berishi mumkin, lekin shu bilan birga, u axborot noto'g'ri talqin qilinishi, algoritmlardagi kansitishlar normalarni qo'llashdagi insoniy omilarning ya'ni insoniy his-tuyg'ular yo'qligi kabi xavflarni ham o'z ichiga oladi.

Ushbu maqolada sun'iy intellektning sud qarorlarini qabul qilish jarayonidagi imkoniyatlari va xavf-xatarlari tahlil qilingan bo'lib, sun'iy intellektning sud tizimini yanada samarali va shaffof bo'lishiga yordam bera oladimi yoki aksincha, adolat mezonlariga zid bo'lgan muammolarni keltirib chiqarishi mumkinmi ? Bu savollarga javob izlash bugungi huquqshunoslik va texnologiya rivojlanishi kontekstida muhim ahamiyat kasb etishi ko'plab muhokamalrغا sabab bo'lmoqda.

Sun'iy intellektdan foydalanishning imkoniyatlari, sun'iy intellektdan foyidalanish imkoniyatlari hozirgi kunda deyarli barachga mintaqalarda jadal rivojlanib borayotgan sohalardan biri ekanligi barchamizga ma'lum. Shuningdek, sun'iy intellektning turli sohalarda qo'llanila boshlashi ta'lim, IT sohasi va sud-huquq tizimida va boshqa sohalarda qo'llanila boshlashi jadal o'sayotganligi va insoniyatga nisbatan qulay imkoniyatlar va vaqt tejamkorligi shuning bilan birga moliyaviy xarajatlarni kamaytirish kabi imkoniyatlarga ega tizim desak mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, Sud qarorlarini qabul qilishda sun'iy intellektni qo'llash allaqachon boshlangan. Jumladan, AQSH, Rossiya, Xitoy va Meksikada ham sezilarli yutuqlarga erishilmoqdaligi bizga ma'lum. Jumladan, Xitoy sudlarga 100 dan ortiq sudiya robotlarni joylashtirdi va

aholiga huquqiy maslahatlar berilmoqdaligini misol qilib keltirsak bo'ladi [1]. Shu bilan birga Estoniyada kichik o'lchamdag'i fuqarolik da'volari bo'yicha hal qilinadigan dasturni sinovdan o'tkazilganligi mazkur sohaga e'tibor jadal rivojlanmoqdaligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, yaqinda o'tkazilgan davlatlararo so'rov shuni ko'rsatdiki, 25 yil ichida sud qarorlarini qabul qilishning deyarli 30 foizini sun'iy intellekt amalga oshiradi, deb hisoblashadi, bu esa sun'iy intellektning hozirgi roli sud qarorlarini qabul qilishda 10 foizdan kamroqni tashkil qiladi, degan taxminlarni uch barobarga oshiradi [2]. Shu bilan birga hozirgi kunda jadal rivojlanib borayotgan sun'iy intellekt ko'plar insonlarga, tashkilotlar va davlat organlarining faoliyat yuyritishida asosiy yordamchi kuchga aylanishi mumkinligi to'g'risidagi taxminlar (pragnozlar) soni kundan-kunga ortib bormoqda. Shu bilan birga sun'iy intellektning inson aqliy darajasidan bir necha bor kuchli va tezkor ekanligini ham ta'kidlab o'tishimiz zarur. Hozirgi kunda bu texnologiya turli sohalarda, jumladan, sanoat, tibbiyot, transport, ta'lif va moliya kabi soahlarda qo'llanilishi ko'plab yo'naliishlarda inqilobiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Jumalada, tibiyyot va sud-huquq tizimidagi faoliyatining o'ziga qamrab olishi jarayyonni yaqqol namoyon bo'lib ko'rinoqda.

Sun'iy intellektninig ijobiy taraflari ham mavjud bo'lib, birinchi navbatda insonlar uchun qulaylik yaratish, shuningdek ishlab chiqarish jarayonlari optimallashtirilmoqda, bu esa vaqt va xarajatlarni tejash imkonini beradi. Prognozlarga ko'ra, 2030 yilga kelib, sanoatning umumiyligi iqtisodiy hajmi sun'iy intellekt texnologiyalari hisobiga 14 trillion AQSh dollariga yetishi mumkin. Bu texnologiya, ayniqsa, avtomobilsozlik, elektronika va kimyo sanoatida inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin [3]. Shuningdek, xalqaro tajribalarning jorish etilishida qulay imkoniyatlar yaratilmoqdaligi va sud-huquq tizimidagi vaqt va xarajatlar bilan bog'liq muammolarni kamaytirishga asos bo'layotganligi yoki bo'lishi mumkinligi ta'kidlab o'tsak bo'ladi.

¹ <https://law-ai.org/the-challenges-of-artificial-judicial-decision-making-for-liberal-democracy/>.

² <https://law-ai.org/the-challenges-of-artificial-judicial-decision-making-for-liberal-democracy/#:~:text=uch%20barobarga%20oshiradi.-,%5B6%5D,-Shu%20nuqtai%20nazardan>.

³ <https://yuz.uz/uz/news/suniy-intellektdan-foydalanish-meyorlari-muammolar-va-istiqbollar>.

Hozirgi kunda sun'iy intellektning sud-huquq tizimida qo'llanilishida asosan sudyalarga ko'makchi sifatida baholasak bo'ladi, biroq sudyalar o'rnidan qaror qabul qilishi va mazkur qarorlarni ayblanuvchiga kvalifikatsiya qilishida muammolar yuzaga kelishi mumkin ekanligini e'tiborga oilishimiz darkor. Shu bilan birga manfaatdor shaxslarga o'z huquqlarini amalga oshirishlari uchun qulay imkoniyatlar yaratishi ular bilan bog'liq vaqt va xarajatlar bilan bog'liq muammolarda ijobiy natija berishi mumkin biroq Sun'iy intellektning shaffoflik va insonparvarlik prinsiplarini qo'llashda turli muammolar yuzaga kelishi mumkin ekanligini ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Sun'iy intellektning sud tizimiga ta'siri. Sun'iy intellektning sud tizimiga ta'siri bugungi kunda ko'pgina mamlakatlarda jiddiy muammoga aylanib borayotganligini ko'rib o'tishimiz mumkin. Shuningdek, sun'iy intellekt qarorlar qabul qilish yoxud hukm chiqarishda insoniylikka zid qarorlar qabul qilishi mumkin ekanligini bir necha bor tajribalarda namoyon bo'lganligini e'tiborga olishimiz lozim. Bu esa inson huquqlariga mufoviq emas. Sun'iy intellekt takomillashuvi va qo'llanilishida etika me'yorlariga rioya qilish, inson huquqlarini himoya qilish va insoniylik qadriyatlarini saqlab qolish muhimdir. Ayni paytda, huquqshunoslar tomonidan sun'iy intellekt asosida qabul qilinadigan qarorlar ustidan inson nazoratini saqlab qolish lozim eaknligini ta'kidlashgan. Sun'iy intellektning kelajakdagi rivojlanishi insoniyat uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, ammo bu imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun mavjud muammolarni yechish va oldini olish zarur.

Shu bilan birga, sun'iy intellektning ijobiy taraflari ham mavjud bo'lib, bular qatoriga, *samaradorlik va tezlik, Inson xatosini kamaytirish va kengaytirilgan huquqiy tahlillarni* ko'rsatib o'tishimiz lozim. *Samaradorlik va tezlik*, sun'iy intellektning huquqiy axborotni qayta ishlashni avtomatlashtirish va katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali sud jarayonlarini sezilarli darajada tezlashtirishi mumkin. Bu ishlarning tezroq hal etilishiga olib keladi va sudlarda kechikishlarni kamaytiradi va shu bilan odil sudlovdan foydalanish imkoniyatini yaxshilaydi [4].

⁴ <https://consensus.app/questions/ethics-implications-using-judicial-decisionmaking-legal/#result-3>

Shuningdek, sun'iy intellektning *Inson xatosini kamaytirishga* oida ijobjiy taraflarini ham tahlil qiladigan bo'lsak, sun'iy intellekt tizimlari sud qarorlarida inson xatolari va tarafkashliklarni minimallashtirishga yordam beradi. Izchil va ma'lumotlarga asoslangan tahlillarni taqdim etish orqali sun'iy intellektning sudyalarga yanada ob'ektiv qarorlar qabul qilishda yordam berishi mumkin ekanligini ko'rsatib o'tishimiz lozim. Shuningdek, sun'iy intellekt qonunlar va pretsedentlarni talqin qilishda yordam berishi mumkin va inson tahlilchilari e'tibordan chetda qolishi mumkin bo'lgan batafsil ma'lumotlarni taqdim etadi. Bu esa yanada puxta va asosli huquqiy dalillar va qarorlarga olib kelishi mumkin ekanligini e'tiborga olishimiz lozim.

Sun'iy intellektning sud tizimida qarorlarni qabul qilishida axloqiy tashvishlar ham mavjud bo'lib bular qatoriga *Tarafsizlik* va *adolat* prinsiplarining no'to'g'ri talqin qilinishida namoyon bo'ladi. Ya'ni, asosiy axloqiy tashvishlardan biri bu sun'iy intellektning huquqiy tizimda mavjud bo'lgan noto'g'ri qarashlarni davom ettirish imkoniyatidir. Sun'iy intellektning algoritmlari asosan tarixiy ma'lumotlar bo'yicha o'qitiladi, ular noto'g'ri ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Agar bu noto'g'ri holatlarga e'tibor berilmasa, sun'iy intellektning sud-huquq tizimida qarorlar qabul qilish jarayonlarida adolatsizlik va inson qadr-qimmatini kamsitishga sabab bo'lishi mumkin ekanligini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Shu bilan birga, sun'iy intellektning asosiy muammolaridan biri bu, *Shaffoflik* va *javobgarlik* va *ma'lumotlarning maxfiyligida* yuzaga keladigan muammolarni nazarda tutishimiz lozim.

Ya'n, sun'iy intellektning sud-huquq tizimida qabul qilgan qarorlar shaffofsizlik yoki insonparvarlik prinsipining no'to'g'ri qo'llanilishi sud tizimiga bo'lgan ishonchni susaytirishi va sun'iy intellektning xatolar yoki adolatli bo'lмаган qarorlar uchun javobgarlikka tortishni qiyinlashtirishi mumkin. Shu bilan birga huquqiy tizimlarda sun'iy intellektdan foydalanish nozik shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlashni, ma'lumotlarning maxfiyligi bilan bog'liq xavotirlarni oshirishni o'z ichiga oladi [5]. Sun'iy intellektning ma'lumotlarni himoya qilish qonunlari va axloqiy

⁵ <https://consensus.app/questions/ethics-implications-using-judicial-decisionmaking-legal/#result-3>

standartlarga muvofiqligini ta'minlash jamoatchilik ishonchini saqlash uchun juda muhimdir.

Sud-huquq tizimida sun'iy intellektning qarorlarni qabul qilishda global muammolaridan bir bu turli mamlakatlarda sud-huquq tizimidagi sun'iy intellektning joriy etilish amaliyoti sun'iy intellektning bazasiga kiritilgan ma'lumotlarni ayblanuvchiga qo'llashda insoniylik va demokratizm prinsiplarning hisobga olishi va qo'llashda maummolar yazaga kelmoqda.

Sud qarorlarini qabul qilish va huquqiy tahlil qilishda sun'iy intellektdan foydalanish samaradorligini oshirish, inson xatolarini kamaytirish va huquqiy tahlilni yaxshilash kabi muhim afzalliklarni beradi. Shu bilan birga, u noxolislik, shaffoflik, javobgarlik va ma'lumotlar maxfiylici kabi muhim axloqiy va amaliy muammolarni ham keltirib chiqaradi. Ushbu tashvishlarni mustahkam qonunchilik asoslari va axloqiy me'yorlar orqali hal qilish sun'iy intellektning huquqiy tizimni buzmasdan, balki yaxshilashini ta'minlash uchun juda muhimdir. Sun'iy intellektning rivojlanishda davom etar ekan, sud tizimidagi sun'iy intellektning murakkab muammolarini mas'uliyat bilan boshqarish uchun doimiy nazorat va tadqiqotlar zarur ekanligini ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Sun'iy intellektdan foydalanishning xavf-xatarlari. Birinchi navbatda biz sun'iy intellektning xavfi nimada ? degan savolga javob berishimiz lozim. Ya'ni bugungi kunda hayotimizda sun'iy intellekt bilan bo'qliq ko'plab xavflar mavjud. Bugungi kunda eng katta xavf-xatarlardan ba'zilari insonlarning shaxsiy hayoti, adolatsiz dasturlash, odamlar uchun xavf va noaniq huquqiy tartibga solish kabi narsalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek sun'iy intellektning joriy etilishi ko'pgina sohalarda mehnat qilish faoliyati bilan bog'liq ya'ni ishsizlik bilan bog'liq muammoilarning yuzaga kelishida sababchi bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ya'ni, Takroriy ishlarni va boshqa turdagи ishlarni sun'iy intellekt bilan almashtirish kompaniya uchun foydali bo'lsa-da, bu, shubhasiz, ishsizlikka ham ta'sir qiladi.

An'anaviy ish rollari bosqichma-bosqich bekor qilinadi, bu ularni bajaradigan xodimlarning ishsizligiga olib keladi. Bu taraqqiyot belgisi sifatida qaralishi mumkin

bo'lsa-da, ishchilar ilgari mavjud bo'lgan ko'plab ish imkoniyatlardan mahrum bo'lishadi. Shuningdek, sun'iy intellekt eng katta kamchiliklaridan biri bu his qilsh tuyg'usining mavjud emasligi. ya'ni, sun'iy intellekt bilan jihozlangan mashinalar tezroq va doimiy ishlashi mumkin bo'lsa-da, ular qaror qabul qilishda his-tuyg'ularni hisobga olmaydilar. Shu bilan birga axloqiy normalarni qo'llashda yuzaga keladigan xotolarning yuzaga kelishi va Insoning dangasalik salohiyatini oshirishi mumkin ekanligini ta'kidlab o'tishimiz lozim [6]. Shu bilan birga sun'iy intellektdan foyidalanayotganda *Maxfiylik va ma'lumotlar xavfsizligi bilan bog'liq muammolar* yuzaga kelishi mumkinligi, shuningdek sud-huquq tizimida qarorlarni qabul qilishda prinsiplarni qo'llashda turli xil ko'rinishdagi muammolar yuzaga kelishi mumkinligini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Shu bilan birga yuqorida ta'kidlab o'tgan muammolarning jadallashi sud-huquq tizimida qabul qilgan qarorlarning adolatliylik va insonparvarlik va boshqa insoniy prinsiplarining zarar yetishiga sabab bo'lsa sun'iy intellektga nisbatan ishonchsizlik kayfiyati uyg'onishiga sabab bo'ladi.

Sun'iy intellektni qo'llashda qiyinchilik tug'diradigan nuqta - bu insonning muhim xususiyatlari bo'lgan axloq va his-tuyg'ularni o'zida mujassamlashtirmaganligidadir. Sun'iy intellektni faqat qarorlar va bashoratlarni shakllantirish uchun ma'lumotlar va algoritmlarga ega. Sun'iy intellektni qo'llaganda u asosan, xulosaga e'tibor qaratadi. Shuningdek, sun'iy intellektni ishlab chiqish va joriy etishda axloqiy me'yorlar faol tadqiqot va muhokama sohasi bo'lib, mazkur tizimni qo'llashda jiddiy tahlil va nazorat talab qilinishini inobatga olishimikz zarur.

Xulosa qilib ayatdigan bo'lsak, Sun'iy intellekt sud qarorlarini qabul qilish jarayonida, imkoniyatlar va xavf-xatarlar doyim mavjud bo'lib mazkur tizmni qo'lashga oid sohalarga jiddiy e'tibor qaratishimiz lozim ekanligini ta'kidlab o'tishimiz kerak. Sun'iy intellekt sud qarorlarini qabul qilish jarayonida katta imkoniyatlarga ega bo'lib, sud jarayonlarining tezkor, samarali bo'lishiga xizmat qilishi mumkin. Sun'iy intellekt texnologiyalari sud tizimidagi yuklamani kamaytirish, huquqiy hujjatlarni avtomatlashtirish, xatoliklarni kamaytirish va sud qarorlarini

⁶ <https://rockcontent.com/blog/artificial-intelligence-pros-and-cons/>.

yanada qisqa fursatda qabul qilish imkoniyatini beradi. Sudyalar va advokatlar sun'iy intellekt sud jarayonlarini boshqarishda undan foydalanishlari mumkin. Biroq, sun'iy intellektning sud qarorlarini qabul qilish jarayonida to'liq mustaqil harakat qilishi qator xavf-xatarlarni ham keltirib chiqarishini yuqorida ta'kidlab o'tdik. Sun'iy intellekt dasturlari insoniy hissiyotlarni va etik me'yorlarni to'liq anglab yetolmaydi, shuningdek, ularga kiritilgan ma'lumotlar va algoritmarning noto'g'ri ishlashiadolatsizliklarga sabab bo'lishi mumkin. Algoritmlarda mavjud moyillik ba'zi insonlarning, tashkilot va davlat organlarining huquqlariga tajovuz qilish yoki noto'g'ri qarorlar chiqarishga olib kelishi ehtimoli mavjud ekanligini e'tibordan yiroqda qoldirmasligimiz lozim. Bundan tashqari, insoniy omilning yo'qligi, har bir ishning individual jihatlari va kontekstini yetarlicha hisobga olmaslik xavfi ham mavjud.

Shu sababli, sun'iy intellekt sud tizimida to'liq avtonom qaror qabul qiluvchi vosita sifatida emas, balki yordamchi texnologiya sifatida qo'llanishi lozim. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan sudyalar va advokatlarga huquqiy jarayonlarni tezlashtirish va optimallashtirish maqsadida foydalanish mumkin, biroq yakuniy qaror inson tomonidan qabul qilinishi lozim. Shu bilan birga, sun'iy intellekt asosida chiqarilgan har qanday qaror shaffof bo'lishi va mustaqil ekspertlar tomonidan nazorat qilinishi kerak. Kelajakda sun'iy intellekt sud tizimida kengroq qo'llanishi kutilmoqda, lekin bu jarayonda huquqiy va etik me'yorlar qat'iy belgilanishi, shuningdek, algoritmarningadolatlilik tamoyillariga mosligi ta'minlanishi muhimdir. Faqat shundagina sun'iy intellekt sud tizimida adolatni ta'minlash va samaradorlikni oshirishda haqiqiy yordamchi vosita bo'la oladi.

REFERENCES :

- ¹ <https://law-ai.org/the-challenges-of-artificial-judicial-decision-making-for-liberal-democracy/>.
- ² <https://law-ai.org/the-challenges-of-artificial-judicial-decision-making-for-liberal-democracy/#:~:text=uch%20barobarga%20oshiradi.-,%5B6%5D,-Shu%20nuqtai%20nazardan>.

3 <https://yuz.uz/uz/news/suniy-intellektdan-foydalanish-meyorlari-muammolar-va-istiqbollar>.

4 <https://consensus.app/questions/ethics-implications-using-judicial-decisionmaking-legal/#result-3>

5 <https://consensus.app/questions/ethics-implications-using-judicial-decisionmaking-legal/#result-3>

6 <https://rockcontent.com/blog/artificial-intelligence-pros-and-cons/>.